



TALABALARNING LOYIHA ISHLARIDA HAMKORLIGI

Normatova Hilola Ihomjon qizi

Sobirova Feruza Islomjon qizi

f.sobirova@uzswlu.uz

Annotatsiya: Bu maqola talabalarning guruh bo'lib ishlashi muhimligini ko'rsatadi. Hamkorlikda ishlash talabalarga g'oyalarni ulashishga, mavularni taqsimlashga, muloqotda muhim bo'lgan ko'nikmalarni o'rganishga va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu maqola shuningdek guruh bo'lib ishlashda bir qancha muammolarni eslatib otadi. Misol uchun, bazi talabalar boshqlarga qaraganda ko'proq ishlashadi. Jamoa bo'lib loyiha ustida ishlash turli xil g'oyalarni beradi. Xulosa shuki, bu maqola talabalarga guruh bo'lib ishlash kelajak hayotidagi kasblariga tayyorlanishini korsatadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, aloqa qila olish, muammolarni hal qilish, talabalar, fikr almashish reja tuzish, mas'uliyat.

Kirish

Loyiha ishlarida talabalarning hamkor tarzda ishlashi zamonaviy talim tizimining muhim qismlaridan biriga aylanmoqda. Qachonki talaba loyiha ustida birgalikda ishlaganlarida, ular o'zlarining ko'nikmalarini shakllantiradilar, tajribalari oshishiga yordam beradi va oldinga qo'yilgan maqsadga erishishga ko'maklashadi. Bu albatta, ancha qiziqarliroq va talabalarning nafaqat yakka holda balki birgalikda o'rganilgan bilimlarini tushunishga yordam beradi. Hamkorlikda ishlash bu turli g'oyalarga ega bo'lishlikdir.

Jamoaviy Hamkorlik

Jamoaviy ish ham shaxslar ham tashkilotlar uchun ko'p foyda keltirishi mumkin. Shuningek, korxonalar jamoalar va kompaniyalarda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirishga harakat qilishning sababidir. Odamlar bilan hamkorlik qilish bu ishning samarali bajarilishi demakir. Hamkorlik qilishning asosiy



tamoyillaridan biri bu yahshi muloqot qilishdir. Har qanday ishni bajarish uchun ,avallombor, xabarlarni yuborish, ularni qabul qilish va puxta o'ylash kera. Hamkorlik ko'nikmlarini qo'llash va jamoaviy mashg'ulotlarga etibor qaratish uchun guruh azolariga birgalikda ishlash imkonini beradi. Jamoaviy hamkorlikda bitta jamoa yetakchisi bolib, jamoani samarali hamkorlikka yetaklaydi va muvozanatni saqlashni nazorat qiladi . Jamoa bo'lib haeakat qilish bir qancha samarali say harakatlarni o'z ichga oladi .Har bir jamoa azosida turli hil qarashlar va ko'nikmalar mavjud. Ular bu bilimlarini stolga olib keladi va muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi .

Ijtimoiy Hamkorlik

Ijtimoiy hamkorlik bu turli xil din vakillari va dinlarga mansub kishilarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishidir. Ijtimoiy hamkorlik bu guruh azolari bilan tez va erkin holda muloqot qilishi , g'oyalar berishi va muammolarani birgalikda hal qilish jarayonidir.Bunday odamlarning umumiy qarorga kelishlari oson bo'ladi . Ijtimoiy hamkorlikning bir qancha afzalliklari mavjud; ular muammoni oson hal qilish, masofaviy ishlashga qulay hamda turli hil g'oyalarga ega bo'lishlikdir. Ijodiy hamkorlik hozirgi kunda eng samarali usullardan biri .Agarda jamiyatimizda ijtimoiy hamkorlik bo'lmasa, turli hil din va millat vakillari o'rtasida ishoncsizlik hamda turli hil ziddiyatlarni yuzaga keltiradi va bu albatta inqirozga sabab bo'ladi . Ijtimoiy hamkorlikka g'ov bo'ladigan to'siqlar, bular terrorism, aqidaparastlik, shovinizm va ekstremizmdir. Bunday zararli g'oyalarga ergashadigan xalq tanazzulga yuz tutadi . Bunga turli hil misollarni keltirish mumkin . Bunday mafkuraviy g'oyalarni xalqimiz orasida ko'payib bormoqda va shuning uchun ham jtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb masalalar bittasiga aylanmoqda. Malumki, O'zbekiston diyorida turli hil svillizatsiya vakillari xilma xil etiqod va dunyoqarashlar yonma yon yashab ijtimoiy hamkorlik asosida rivojlanib kelgan.

Virtual hamkorlik



Virtual hamkorlik — bu talabalarning internet orqali muloqot qilishi, g'oyalar almashishi va loyihalar ustida masofadan turib birgalikda ishlashi jarayonidir. Bunday hamkorlik turli onlayn platformalar yordamida amalga oshiriladi, masalan: videoaloqa dasturlari, umumiy hujjatlar muharrirlari yoki messenjerlar. Virtual guruhda ishlash talabalarga qachon va qayerda bo'lishishidan qat'i nazar hamkorlik qilish imkonini beradi, bu esa ularning mas'uliyat, va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, virtual hamkorlik madaniy xilma-xillikni tushunish, muloqotning yangi uslublarini o'rganish va umumiy muhitda ishlashga tayyorlanishga yordam beradi. Shu bilan birga, internetga ulanishdagi muammolar yoki vaqt moslashtirishdagi qiyinchiliklar kabi kamchiliklari ham mavjud. Virtual tarmoq jamoalari muayyan media orqali bog'langan. Eng ko'p tarqalgan virtual jamoalar onlayn tarmoqlar orqali ishlaydigan jamoalardir. Virtual hamkorlikda masofaviy turib ishlab unda qayerda turganligingiz va qachon, qaysi paytligi muhim emas.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilganidek, hamkorlikning barcha turlari — jamoaviy, ijtimoiy va virtual — zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy qismlaridan biriga aylangan. Talabalar hamkorlikda ishlash jarayonida, ular muloqotda bo'lishni, ko'plab g'oyalar berishni loyiha ustida va qanday jamoa bilan ishlashni o'rganishadi. Jamoaviy hamkorlik muammolarni birgalikda hal qilish, yetakchilik va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirsa, ijtimoiy hamkorlik jamiyatdagi tinchlik, totuvlik va madaniy xilma-xillikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Virtual hamkorlik esa talabalarga zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan turib hamkorlik qilish imkonini berib, ularni fan texnologiyalar davrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Umuman olganda, hamkorlik insonlarni muammolarni birgalikda hal qilishga, ularning bilimlarini oshirishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga, boshqalar bilan guruh bo'lib ishlashga va kelajak kasbiy faoliyatiga puxta tayyorlanishiga



yordam beradi. Shuning uchun ham har qanday sohada hamkorlikning o'рни beqiyosdir.

REFERENCES

Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). *Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory*. Journal on Excellence in College Teaching, 25(4), 85–118

Barkley, E. F., Cross, K. P., & Major, C. H. (2014). *Collaborative Learning Techniques: A Handbook for College Faculty*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.

Sawyer, R. K. (2017). *Group Genius: The Creative Power of Collaboration*. New York, NY: Basic Books

Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell Publishing.
(Virtual hamkorlik va raqamli jamiyatga oid)

Rheingold, H. (2012). *Net Smart: How to Thrive Online*. Cambridge, MA: MIT Press.

(Online hamkorlik, muloqot va raqamli savodxonlik haqida)

Kozma, R. (2003). *Technology and classroom practices: An international study*. Journal of Research on Technology in Education, 36(1), 1–14.
(Virtual ta'lim va texnologik hamkorlik bo'yicha)

UNESCO (2020). *Collaboration and education in the digital era*.
(Ijtimoiy va virtual hamkorlikning global ahamiyati)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2021). *Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosati*.
(Ijtimoiy hamkorlik bo'yicha mahalliy hujjat)